



## O'RTA OSIYO XONLIKHLARI DAVRIDA OT SAVDOSI (QO'QON XONLIGI MISOLIDA)

BuxDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori

Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich

+998(93)6262847

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qo'qon xonligida yetishtirilgan zotli otlar va yoki tashuvchi otlarning narx-navosi va dunyo bozorida tutgan o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari xalqaro savdo-sotiqlarda otlardan foydalanishning ahamiyatli jihatlari ham manbalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'z:** zotli ot, pud, karvon, tuya, tuktachoy, oqquyruq, funt, sartar, arg'umoq, teri, xurjun, ipak, bo'z.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о цене породистых лошадей и упряжных лошадей, разводимых в Коканском ханстве, а также их месте и значении на мировом рынке. Кроме того, на основе источников также анализируются важные аспекты использования лошадей в международной торговле.

**Ключевые слова:** чистокровная лошадь, пуд, караван, верблюд, туктакой, белый хвост, фунт, сартар, пурпур, шкура, хурджун, шелк, серый,

**Annotation:** this article presents information about the price and importance of thoroughbred horses and packhorses bred in the Kokand Khanate and their role and importance in the world market. In addition, significant aspects of the use of horses in international trade have also been analyzed on the basis of sources.

**Keyword:** purebred horse, pud, caravan, camel, tuktachoy, Swan, pound, sartar, Argan, leather, khurjun, silk, bow.

Zotli otlar Qo'qon xonligida serdaromad soha bo'lganligi bilan ajralib turadi. Bu yerda ot yetishtirish uzoq tarixga borib taqaladi va ayni shu otlar masalasida Davan va Xitoy



davlarlari o'rtasida urush harakatlari ham bo'lib o'tganligiga tarix guvoh. Qo'qon xonligida yetishtirilgan otlar nafaqat O'rta Osiyoda, balki butun dunyoda yuqori baholangan. Qo'qon xonligidan Buxoro bozorlariga yuk tashuvchi va zotli otlar ham olib borilgan. XIX asr 60-yillarida 35 pud yuk tashuvchi va 13-14 pud yukni ko'tara oladigan Qo'qon otlari Buxoro bozorlarida 5 tillordan 15 tillogacha sotilgan<sup>22</sup>.

XIX asr 30-yillarida Xitoydan Yorkent, Qo'qon orqali "tuktachoy" (gisht choy) va "oqquyruk" (kuk choy) navli choylar ot terisidan tayyorlangan xurjunlarda Buxoro bozorlariga 200 ming funt mikdorida keltirilgan. Ot terisidan tayyorlangan xurjunlarda keltirilgan xitoy choyi asl ta'mini saklab qolishi va sifati buyicha dengiz orqali keltirilgan choylardan ajralib turgan. 1862-yil G'arbiy Xitoya Sharqiy Turkiston musulmonlari Xitoy hukumatiga qarshi qo'zg'olon ko'targuniga qadar, Xitoy choyi Yanszi daryosi buyidagi plantatsiyalardan Yorkent va Qashqarga va u yerdan Qo'qon orqali Buxoroga keltirilgan<sup>23</sup>.

Qo'qon xonligida yuqori baxolangan mashxur turkman va Mashxad gilamlari Buxoro xonligi orqali keltirilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro yaqinidagi G'ijduvon shahrida O'rta Osiyodagi eng yirik chorva bozori bo'lib, bu bozorga butun dunyoga mashhur turkman otlari xam olib kelgingan va bu otlar qo'qonlik savdogarlar tomonidan ko'plab xarid qilingan<sup>24</sup>. Qo'qondan Qashqarga otlarda olib borilgan. Buxorolik savdogarlar bu yo'l orqali Tibetgacha borgan<sup>25</sup>. Xivadan Qo'qon xonligiga oz miqdorda Xiva choponlari, bo'z, po'stin, ot, tuya, ho'kiz terilari, yarim ipak mato, gilam, arg'umok otlar va Mashhad orqali keltirilgan ingliz chiti olib ketilgan<sup>26</sup>.

CH.Valixonov manjurlar elchilari 1762-yilda qozoqlarning O'rta juz xoni Abdumambet va Sulton Ablayxon(1711 – 1781)ga 150 imperator istagini bildirib, bahorda Turkiston va Samarqandga harbiy yurish qilmoqchi ekanligini aytganini qayd etgan. Buning uchun ular odamlar, otlar, ho'kizlar va qo'yalar ajratishini talab qilgan<sup>27</sup>. Qo'qondan

<sup>22</sup> Мадрахимов, Зоҳид Кукон хонлишда савдо муносабатлари тарихи: монография / З. Мадрахимов. -Тошкент: «Yangi nashr», 2014. - 176 б.

<sup>23</sup> Туркестанский сборник. Том 26. - С. 101.

<sup>24</sup> ЎзР МДА, И. 1-фонд, 20-рўйхат, 2940-иш, 66- варакнинг оркаси

<sup>25</sup> Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - Москва, 1975. - С. 128 - 130.

<sup>26</sup> Записки о Бухарском ханстве... — С. 81.

<sup>27</sup> Валиханов Ч.Ч. Соб. соч. В 5 томах. Т.1. – Алма-Ата, 1987. – С.11



Qashqarga har yili 1000 – 2000 tuyaga mollar ortilgan karvon kelgan bo‘lsa, bunga javoban shunday hajmdagi karvon Qo‘qonga kelgan. Bu savdo karvonlarida tuya, ot, eshak transport vosita vazifasini bajargan. Eshaklarga ko‘proq karvonboshi mingan. Terak dovoni yo‘li ko‘proq shag‘alli yo‘l bo‘lganligi uchun tuyalar yoki otlarning oyog‘iga matodan yo teridan paypoq kiygizilgan. Natijada tuya yoki otlarning oyog‘i lat emagan. Otlar bu yo‘ldan tez o‘tishga moslashgan, ammo ular ham mashaqqatli tog‘ yo‘lida halok bo‘lgan. CH.CH.Valixonovning yozishicha, «yo‘l azobi tufayli har kuni ikkita hayvon o‘lgan»<sup>28</sup>. Bu ma’lumotlarni XIX asr o‘rtalarida Rossiya imperiyasining Qashqardagi konsuli bo‘lgan A.Kuropatkining ma’lumotlari ham tasdiqlaydi. Uning yozishicha, «ba’zan qor ko‘p yog‘ardi, ammo harakat to‘xtab qolishi mumkin emas edi. Bu holatda karvonlarga sartarlar yordamga keladi. Qirg‘izlar o‘z qo‘toslari yordamida savdogarlarning yuklarini tashib berishar va otlarga yo‘l ochish uchun qorlarni kurashar edi». O‘rta Osiyo savdogarlari Rossiya shaharlariga boruvchi uzok karvon yullarida qozoq tuyalari va qisman otlaridan foydalangan. Qozoqlar tuya va otlarini savdogarlarga ijaraga bergenlar va o‘zlari xam yuk eltuvchi va yo‘l boshlovchi vazifasida faoliyat olib borganlar.<sup>29</sup>

Xazinaga tushadigan daromad keskin kamayib ketganidan so‘ng 1874-yil 10-iyunda Xudoyorxon qo‘srimcha soliq turlarini joriy qilgan. Unga ko‘ra, chorva bozorlarida sotilayotgan qoramol va ot uchun bir tanga, tuya uchun ikki tanga, qo‘y uchun yarim tanga, avvallari foydalanish tekin bo‘lgan qamish yoki shox-shabbaning bir aravasidan shaxar darvozasi oldida yarim tanga, bozordagi bir o‘rin uchun bir tangadan soliq olingan<sup>30</sup>. Xorazm savdogarlari Hindistonga yuk olib borayotganda Amudaryo orqali kemalarda mollarni Termizgacha, undan so‘ng esa ot-tuya karvonlari yordamida Balx, Qobul, G‘azna,

<sup>28</sup> Кўлдашев, Шерали. Кўкон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар [Матн] /нашрга тайёрловчи Шерали Кўлдашев. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 256 б.

<sup>29</sup> Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве... — С. 376, 518

<sup>30</sup> Мадрахимов, Зоҳид Кукон хонлишда савдо муносабатлари тарихи: монография / З. Мадрахимов. -Тошкент: «Yangi nashr», 2014. - 176 б.



Lahor shaharlardan o‘tib, Dehliga etkazib kelganlar. Xorazmdan Hindiston bozorlariga ko‘proq yilqi otlar, qalayi, mis, oltin, kumush buyumlar olib kelingan<sup>31</sup>.

Yuqoridagi manbalardan kelib chiqadigan bo‘lsak, jamiyat hayotida muhimlik jihatidan otlarning o‘rni va ahamiyati juda yuqori bo‘lganligini tahlil qilishimiz mumkin. Chunki otlar eng asosiy transport vositasi sifatida qo‘llanilgan, Bundan tashqari qo‘shinda ham eng asosiy o‘rinda turgan chopqir otlarni qo‘shni davlatlar rahbarlari ham o‘z qo‘shinlarida ko‘rishni istaganliklari sababli ayni Qo‘qon otlarining xaridorgirligini oshirgan.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мадрахимов, Зохид Кукон хонлишда савдо муносабатлари тарихи: монография /
3. Мадрахимов. -Тошкент: «Yangi nashr», 2014. - 176 б.
2. Туркестанский сборник. Том 26. - С. 101.
3. ЎзР МДА, И. 1-фонд, 20-рўйхат, 2940-иш, 66- варакнинг оркаси
4. Мейендорф Е. К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - Москва, 1975. - С. 128 - 130.
5. Записки о Бухарском ханстве... — С. 81.
6. Валиханов Ч.Ч. Соб. соч. В 5 томах. Т.1. – Алма-Ата, 1987. – С.11
7. Қўлдашев, Шерали. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар [Матн] /нашрга тайёрловчи Шерали Қўлдашев. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 256 б.
8. Гейнс А. К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве... — С. 376, 518
9. Мадрахимов, Зохид Кукон хонлишда савдо муносабатлари тарихи: монография / 3. Мадрахимов. -Тошкент: «Yangi nashr», 2014. - 176 б.
- 10.Кудрат Машарипов. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Монография. Масъул муҳаррир У.Абдуллаев. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Урганч Давлат университета. Ургенч, УрДУ ноширлик бўлими, 2016 йил. -78 бет.132 бет.
11. Sardor Nurmurodovich Kenjayev, Komron Mahmud o’g’li Zayniev. [Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida \(cyberleninka.ru\)](http://cyberleninka.ru) Vol. 3 No. (2022): Science and Education.634-639.
12. Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy(Min) imperiyasi o‘rtasidagi savdo aloqalari tarixidan // “O’tmishga nazar” 4 jild, 10-son, Doi Jurnal 10.26739/2181-9599. – TOSHKENT 2021.- Б.67-74. [ИЗ ИСТОРИИ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ](#)

<sup>31</sup> Кудрат Машарипов. Хоразмнинг Ўрта Шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Монография. Масъул муҳаррир У.Абдуллаев. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Урганч Давлат университета. Ургенч, УрДУ ноширлик бўлими, 2016 йил. -78 бет.132 бет.



## ГОСУДАРСТВА АМИРА ТЕМУРА И КИТАЙСКОЙ (МИН) ИМПЕРИИ | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ (tadqiqot.uz)

13. Ibrohimov N.I. BUYUK IPAQ YO'LNING SHIMOLIY TARMOG'IDA SAVDO IQTISODIY ALOQALAR (QADIMGI DAVR MISOLIDA). SHARQ FALSAFASI RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI.-2023.1-qism 74-78.b.

14. Nurmurod Son, K. S. (2022). Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China (Min State) (In the Case of Fu An). *Miasto Przyszlosci*, 29, 112–114. Retrieved from

<http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/720>

15. Сардор КЕНЖАЕВ. Amir Temurning Xitoy(Min davlati) harbiy yurishga tayyorgarlik jarayonlari va uni keltirib chiqaruvchi omillar // SOHIBQIRON YULDUZI. Ижтимоий-тариҳий, илмий ва оммабоп журнал. №3(49). –Қарши, 2022.25-30 б.

16. Kenjayev S.N. . [Amir Temur's Ambassadorial Activity in Diplomatic Relations with China \(Min State\) \(In the Case of Fu An\) | Miasto Przyszlosci \(miastoprzyszlosci.com.pl\)](#) //

Impact Factor: 9.2, ISSN-L: 2544-980X.- Miasto Przyszlosci Kielce, 2022.112-114 P

17. Кенжаев С.Н. [Amir Temurning Xitoy bilan munosabatlari va Tayzi o'g'lon faoliyati \(cyberleninka.ru\)](#) // Science and education scientific journal, ISSN 2181-0842 VOLUME 3, ISSUE 5. ISSN 2181-0842.- T.:1493-1497 b.

18. Кенжаев С.Н. Trade and economik relations between Amir Temur's state and the Min dynasty// International symposium of young scholars. –USA,2021. 480-481 P. <https://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/download/485/455/1746>

19. Кенжаев С.Н. Faktors of Amir Temur's military march to china and the international political situation // Euro Asian Conference on Analytical Research, ISBN: 978-1-913482-99-2.-Germaniya, 2021.115-117 p. [\(buxdupi.uz\) 4.Germaniya+pdf.+Kenjayev+S.N..pdf](#)

20. Кенжаев С.Н. Хитой сари юришга тайёргарлик жараёнлари ёхуд Амир Темур ҳаётининг сўнгти кунлари. // “Amir Temur – buyuk sarkarda va davlat arbobi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiysi materiallari. – Buxoro, 2022. 52-57 б.Хитой сари юришга та й ёргарлик жараёнлари....

21. Кенжаев, С.Н.(2022). [АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ ДИПЛОМАТИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ОБЪЕКТИВ ВА СУБЪЕКТИВ ОМИЛЛАРИ | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyat \(in-academy.uz\)](#) - Zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyat, 1(26), 130–135. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/5925>. Тошкент, 2022.18-22 б.

22. КЕНЖАЕВ , С. . [АМИР ТЕМУРНИНГ ХИТОЙ ЮРИШИ ВАҚТИДА ЖАНУБИЙ ВА ШИМОЛИЙ САРҲАДЛЯР ХАВФСИЗЛИГИНИ МАСАЛАЛАРИ. | Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: Nazariy va amaliy izlanishlar \(in-academy.uz\)](#) (2022). // Zamonaviy Dunyoda Tabiiy Fanlar: Nazariy Va Amaliy Izlanishlar, 1(25), 18–22. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdtf/article/view/5923>–Toshkent, 2022. 131-134 б.

23. Кенжаев С. Н. Important issues of important of impoving the immunity of security, international harmony, religious tolerance in the state of Amir Temur // Янги Ўзбекистонда маънавий тараққиёт асосларини кучайтиришнинг долзарб масалалари. – Бухоро, 2022. 238-241 б. [Продолжение работы на этом сайте заблокировано. \(buxdupi.uz\)](#)



- 24.Кенжав С. Н. АМИР ТЕМУР ВА ХИТОЙ МУНОСАБАТЛАРИДА САВДОГАРЛАР ТАБАҚАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ ҲАЁТДАГИ ЎРНИ | Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya (in-academy.uz) // «Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya» nomli ilmiy-amaliy konferensiya.–Toshkent, 2022.- 1 pp. 58-60 (7)
- 25.Kenjayev S. THE IMPORTANCE OF THE NORTHERN AND SOUTHERN NETWORK OF THE GREAT SILK ROAD IN AMIR TEMUR'S RELATIONS WITH CHINA | Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot (in-academy.uz) (2022) 1(28), 207–209. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7456181>
- 26.Kenjayev S.N. Амир Темурнинг Хитой билан муносабатларида Шимолий савдо йўлининг аҳамияти/ International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21<sup>st</sup> century 2022/7.197-199.
- 27.Kenjayev S.N. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida. - Science and Education, 2022
- 28.Kenjayev, S Murtazoyev, S Nematova, S Melsova. ROMITAN HUDUDIDA DASTLABGI ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING TAHLILI//S Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya 1 (7), 53-57 file:///C:/Users/Admin/Downloads/ZDIFT0713%20(1).pdf. Кенжав: ва Хитой муносабатлар...
- 29.S.N.Kenjayev, K.M. Zayniev. Amir Temur davlati va Xitoy Min sulolasi aloqalarida otlar savdosi xususida // Science and Education, 2022 Amir [Related articles](#) [All 2 versions](#)